**Key words:** Application, evaluation, Bloom's taxonomy, Illustrative General Instructional Objectives, comprehension, charts and graphs.

**Introduction:** Bloom's Taxonomy is an excellent tool for the development of teaching outcomes because it explains how to learn: you have to memorize concepts before you can actually understand them. You have to start understanding the concept before you can apply it. To rate this process, you must have analysed it. Blooms Scientific categorization could be a classification of the distinctive results and abilities that teachers set for their understudies (learning results). The scientific categorization was proposed in 1956 by Benjamin Blossom, an instructive analyst at the College of Chicago. The phrasing has been as of late upgraded to incorporate the taking after six levels of learning.

Since the 1950's, Bloom's Scientific categorization has been utilized to structure the considering handle in instruction. Afterward inquire about bolstered the concept that the normal considering handle starts with the lower levels of the Scientific classification, and continues to the higher levels. However, consequent investigate uncovered that up to 90 percent of educating happens at the information level, which is the least of Bloom's six levels (Davidson & Decker, 2006). Due to the amendment of guidelines and tests, instructors must guarantee that understudies are able to operate at higher cognitive levels. In this manner, a need has surfaced to extend the utilize of higher arrange considering abilities by the understudies. Since numerous instructors as it were utilize the lower levels of cognitive considering in their instruction, a worldview move in how instructors plan and conduct their lessons must happen . A challenge presently confronted by chairmen is how to assist instructors get it the require for



instruction and appraisal to winding to the higher levels, since instructing at the higher levels envelops the lower levels. A moment challenge is to create lessons containing the ordered substance that advance towards the higher levels of the scientific classification in a way that's not overpowering to understudies or instructors. Teachers are more cognizant of giving understudies openings for victory by creating numerous exposures to the desired substance based on the Virginia Guidelines of Learning (SOL). In this manner, understudies must have openings to hone and apply the particular aptitudes included within the appraisal some time recently the organization of the test. Understudies moreover ought to have openings to connected with the organize of the test some time recently endeavoring the genuine appraisal. The following are the strategies in Blooming's taxonomy:

1. Knowledge is defined as remembering previously learnt things. This may include recalling a wide range of material, from single facts to entire theories, but all that is necessary is the recollection of the relevant knowledge. Knowledge is the lowest level of learning outcomes in the cognitive domain. Illustrative General Instructional Objectives Understands popular terms. Knows particular facts. Knows the methodologies and procedures. Understands basic concepts.

2. Comprehension is defined as the ability to understand the meaning of something. This can be demonstrated by translating content from one form to another (words or numbers), interpreting material (explaining or summarizing), and forecasting future trends (predicting repercussions or impacts). These learning outcomes go one step beyond mere material recall and represent the lowest level.

3. Application is the ability to apply learnt material in new and concrete contexts. This may include the application of rules, procedures, concepts, principles, laws, and theories. The learning outcomes in this category demand a greater level of knowledge than comprehension.

Illustrative General Instructional Objectives Apply principles to new settings. Apply theory to real-world issues. Solves math difficulties. Creates charts and graphs. demonstrates proper use of a process.

4. Synthesis refers to the ability to combine pieces to generate a new entity. This could include creating a distinctive communication (theme or speech), a plan of operations (research proposal), or a collection of abstract relations (information classification scheme). This area's learning outcomes place a strong emphasis on creative behaviors, particularly the development of new patterns and structures.

5. Evaluation is concerned with the ability to assess the value of content (statement, novel, poem, or research paper) for a certain purpose. The judgments must be based on specific criteria. These criteria can be internal (organisation) or external (relevance and purpose), and the student can choose whether to set them or be provided them. Illustrative General Instructional Objectives Evaluates the uniformity of written

material. Judges the extent to which conclusions are backed by data. Uses internal criteria to determine the value of a piece (art, music, or literature). The value of a work (art, music, or writing) is determined by external standards.

6. Objectives (learning goals) should be established in a pedagogical exchange so that both teachers and students understand the purpose of the exchange. Using frameworks to organize objectives might help teachers clarify their own and students' objectives.

In conclusion, Bloom's Taxonomy is a valuable framework for understanding and organizing learning objectives. Using the framework in the classroom, workplace, or personal learning environment, you can also ensure that you make the most of your learning experiences and achieve the best possible outcomes and results.

### References:

1. Jessica Shabatura "Assignments and Measuring Student Learning" 2022.07.26
2. Benjamin S.Bloom, Bertram B.Mesia, and David R.Krathwohl 1964. Taxonomy of Educational Objectives
3. Trankersley,n.d;"The Critical Thinking Community"2008
4. Irfan Hyder "Bloom's Taxonomy in Higher Education" 2016

## VIKTORIA NAVLI QULUPNAY HOSILIGA TA'SIR ETUVCHI AGROTEKNOLOGIK EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR

*R. R. Rashitxodjayeva*

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi iqtisoslashtirilgan maktabi  
7 "A" sinf o'quvchisi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida qulupnayning o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, agroteknologik ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Bunda, Viktoria navli qulupnayni yetishtirish agroteknologiyasini o'rganishda eksperimental tadqiqotlar o'tkazilgan. Xususan, qulupnay hosiliga sog'lom ona qulupnaydan olingan ko'chatlar, ekish muddatlari va ko'chatlar oralig'i ta'sir etuvchi agroteknologik omillar o'rganilgan. Tahlilda, qulupnay hosiliga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. O'tkazilgan eksperimental tadqiqotda Viktoria navli qulupnay hosiliga, ya'ni sog'lom ona qulupnaydan olingan ko'chat, ekish muddatlari va ko'chat oraliqlari ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan. Tahlil natijalari asosida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** qulupnay, Viktoria navi, sog'lom ona qulupnay, qulupnay ko'chati, ekish muddatlari, ekish oraliqlari

### ABSTRACT

In this scientific research work, the characteristics and importance of strawberries, factors affecting the agrotechnology of its cultivation were studied. In this, experimental studies were conducted to study the agrotechnology of Victoria strawberry cultivation. In particular, the agrotechnological factors that affect the strawberry yield are the seedlings obtained from healthy mother strawberries, the planting period and the spacing of the seedlings. In the analysis, the factors affecting the strawberry harvest were evaluated. In an experimental study, the yield of strawberry cultivar Victoria, i.e., seedlings obtained from healthy mother strawberry, was affected by planting dates and spacing is scientifically based. Based on the results of the analysis, scientifically based conclusions were developed.

**Keywords:** strawberry, Victoria variety, healthy mother strawberry, strawberry seedling, planting dates, planting intervals

**Kirish.** Dunyodagi kambag'al aholining 80 foizi qishloq joylarda yashaydi va ularning asosiy faoliyatidan keladigan daromadi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liqdir. Bunday holda, qishloq xo'jalik faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, yangi o'simlik navlarini yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish samaradorligini barqaror rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tomorqa xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, atrof-muhitni saqlash va himoya qilishda, kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, qishloq aholisining 1,5 milliardga yaqini tomorqa xo'jalik faoliyatidan kun kechirishi, dunyo aholisining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanishni talab etiladi.

Qulupnayning tarkibida muhim oziq moddalar va foydali fitokimyoviy moddalar mavjud bo'lib, ular inson salomatligi uchun biologik faollikka egadir. Shuningdek, insonlar tomonidan uning o'ziga xos hidi, yorqin qizil rangi, suvli tuzilishi va shirinligi keng qadrlanib, mevasining sifati bir nechta xususiyatlar, genetik omillar, ekinning joylashuvi, yetishtirish usullari va boshqalar bilan belgilanadi.

Qulupnay AQSh, Italiya, Ispaniya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda past namlikda yetishtirish uchun mos meva sifatida tanilgan. Bugungi kunda, qulupnay 76 mamlakatda tijorat maqsadida yetishtirilib, eng ko'p Xitoy, AQSH, Meksika, Turkiya va Ispaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi 20 yilda 463 ta yangi qulupnay navlari tijorat maqsadida yetishtirilgan bo'lib, O'zbekistonda Muto,


Tashkentskaya, Zenga-Zengana, O'zbekiston go'zali, Kobra, Medvey, Seolhyang, Alba va Viktoria navlari keng tarqalgan.

Avstraliyalik dehqonlar, qulupnayning Viktoria navidan 40 yildan beri foydalanib kelayotgani, qulupnay yetishtiruvchilar uchun hosildorlikni oshirishga katta yordam berdi. Viktoria qulupnay navi dala ekin maydonlari uchun eng yaxshi tanlov navidir. Bu nav avgust oyida dala ekin maydonlariga ekilib, yilliga 2 marta hosil berishi bilan, mamlakatimizda yaratilgan milliy qulupnay navlaridan farqlanadi. Shuningdek, eng yaxshi ta'mli mevalari, hosilining yirikligi bilan boshqa navlardan ajralib turadi. Viktoriya qulupnayi boshqa navlardan farqli o'laroq, yozning uzoq kunlarida yangi gullarni o'stirish qobiliyati ega bo'lib, o'simlik zararkunandalar va kasalliklarning ko'pchiligiga qarshi tura oladi. Qulupnay mevasini haftasiga 2-3 marta yig'ish va keyingi yil uchun yangi ko'chat sifatida ekilishi, qulupnay hosilining yirikligiga ta'sir ko'rsatadi.

O'simliklarni yetishtirishda agrotexnologiyalardan keng foydalanish qishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromad va mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Garchan, oxirgi 2-3 yil davomida dehqonlar tomonidan qulupnayning Viktoria navidan keng foydalanib kelinayotgan bo'lsada, ba'zi viloyatlar iqlim sharoitida uni yetishtirish agrotexnologiyasi ilmiy o'rganilmagan va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

*Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi* – qulupnayning Viktoria navini yetishtirishda sog'lom ona ko'chatlar, ekishda ko'chatlar oralig'i va ekish muddatlarining hosildorlikka ta'sirini o'rganish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Foydalanilgan materiallar va usullar.** Tadqiqotni o'rganishda dastlab, mamlakatimizda aholi jon boshiga o'rtacha qulupnay iste'moli holati o'rganildi, bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi(stat.uz) ning yillik statistik to'plam materiallaridan foydalanildi(1-chizma).




**1-chizma.** O'zbekistonda qulupnayning aholi jon boshiga o'rtacha iste'molining o'zgarish dinamikasi

O'zbekistonda qulupnayning aholi jon boshiga o'rtacha iste'moli 2018-2020-yillar davomida oshgan. Biroq, 2021-yilda aholi soning o'sishi va qulupnay yalpi hosilining 2021-yil 2020-yilga nisbatan 0,6 ming tonnaga kamayishi aholi jon boshiga o'rtacha iste'molning kamayishiga ta'sir ko'rsatgan. Vaholanki, O'zbekiston aholisi jon boshiga o'rtacha qulupnay iste'moli belgilangan tibbiy me'yorlardan pastdir. Eksperimental tadqiqotda qulupnayning Viktoria navi olingan. Bunda, Viktoria navli qulupnay o'simligidan ko'chat olishda uning joriy aprel-may oylarida yig'ishtirib olingan hosildorligini e'tiborga olgan holda, 3 turdagi ona ko'chatlardan ko'chatlar olindi. Olingan ko'chatlar 4 xil variantda, ya'ni 18 sm, 20 sm, 23 sm va 25 sm o'lchamda ekildi. Shuningdek, qulupnay ko'chatlarini ekish muddatlari 5 xil variantda olinib, 15 kunlik farqi bilan 15-avgustdan 15-oktiyabrgacha qulupnay ko'chatlari ekildi.

O'tkazilgan, variantlarda yetishtirilgan bir qulupnay o'simligidan 1 mavsumda olingan o'rtacha hosil 293,6 grammni tashkil etib, ona qulupnaydan olingan ko'chat hosili maksimum 574,0 gramm va minimum 85 grammni tashkil etdi. Bir hil navda bo'lgan qulupnay o'simligidan olingan hosilning turli-tuman bo'lishi ekish muddatlari,


ko'chatlarni ekish oralig'i va sog'lom onadan olingan ko'chatlarga bog'liq bo'lishi mumkin.



**2-chizma.** Viktoria navli qulupnay hosiliga ko'chatlarini ekish muddatlari va ko'chat oraliqlari bog'liqligi

2-chizmaga ko'ra, qulupnay ko'chatlari oralig'larining ortib borishi, xususan 18 sm.dan 20 sm.ga o'zgarishi yoki 20 sm.dan 23 sm.ga o'zgarishi qulupnay hosiliga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, qulupnay ko'chatlarini ekish mudatlarining har 15 kunga kechikishi ham uning hosildorligining kamayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotda asosiy maqsad, ularni yetishtirish agrotexnologiyasida ko'chatlar turi, ekish muddatlari va ko'chat oraliqlarining qulupnay hosiliga ta'sirini baholash bo'lganligi uchun mehnat sarfi, tuproq tarkibi, o'simlikka berilgan o'g'it va suv sarfi bir hil bo'ldi.

Tadqiqotimiz sog'lom, serhosil ona qulupnay o'simligidan olingan ko'chatlar va ularni ekish oralig'i qulupnaydan olingan hosil bilan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda (3-rasm).



**3-рasm.** Viktoria navli qulupnay hosiliga ko'chat oralig'i va ona qulupnaylardan olingan ko'chatlarning bog'liqlik ifodasi

Sog'lom ona qulupnaydan olingan ko'chatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo'lib, hosili 26-40 dona bo'lgan ona qulupnaylardan olingan ko'chatlarda hosil yuqoriligini ko'rsatmoqda. Qulupnay hosiliga sog'lom onadan olingan ko'chatlar va ulardan olingan hosil umumiy hosildorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Umumiy tahlil natijalariga ko'ra, Viktoria navli qulupnay hosilining oshishida, sog'lom ona qulupnaydan olingan ko'chat, ekish muddatlari va ko'chat oraliqlari muhim ahamiyatga ega.

**Xulosalar.** Qulupnay mevasi inson salomatligi uchun muhim oziqa bo'lib, uning iste'moli mamlakatimiz o'rtacha aholi jon boshiga nisbatan past darajada. Aholining qulupnay mevasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish yoki iste'molni tibbiy me'yor asosida ta'minlash bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada, mamlakatimizda sabzavot-poliz urug'larini yetishtirish agrotexnologiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Eksperimental tadqiqot natijalariga ko'ra, qulupnayning Viktoria navi, ona qulupnaydan olingan ko'chatni yetishtirishdan olingan qulupnay hosili maksimum 574,0 gramm va minimum 85 grammni tashkil etdi.

Qulupnay ko'chatlari oralig'larining ortib borishi, xususan 18 sm.dan 20 sm.ga o'zgarishi yoki 20 sm.dan 23 sm.ga o'zgarishi qulupnay hosiliga ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, qulupnay ko'chatlarini ekish mudatlarining har 15 kunga kechikishi ham uning hosilining kamayishiga ta'sir ko'rsatdi. Sog'lom ona qulupnaydan olingan

ko'chatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo'lib, hosili 26-40 dona bo'lgan ona qulupnaylardan olingan ko'chatlarning hosili yuqoriligini ko'rsatdi.

### REFERENCES:

1. Growing the rural nonfarm economy to alleviate poverty an evaluation of the contribution of the World Bank Group. 201
2. FAO (2014) The state of food insecurity in the world 2014. Strengthening the enabling environment for food security and nutrition. Food and Agriculture Organization of the United Nation, FAO, Rome.
3. Muratov S. et al. The Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region //American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology. – 2022. – Т. 6. – №. 3. – С. 135-141.
4. Muratov S. A. The Economic Assessment Of Factors Affecting Small Household (Tomorka) In Rural Areas And Their Income //Irrigation and Melioration. – 2021. – Т. 2021. – №. 3. – С. 45-51.
5. Giampieri F. et al. The strawberry: Composition, nutritional quality, and impact on human health //Nutrition. – 2012. – Т. 28. – №. 1. – С. 9-19.)
6. Temocico G., Sturzeanu M., Ion V. Choice of strawberry varieties by the Romanian growers //Scientific Papers: Management, Economic Engineering in Agriculture & Rural Development. – 2017. – Т. 17. – №. 1.)
7. Nishizawa T. Current status and future prospect of strawberry production in East Asia and Southeast Asia //IX International Strawberry Symposium 1309. – 2021. – С. 395-402.
8. Simpson D. The economic importance of strawberry crops //The genomes of rosaceous berries and their wild relatives. – 2018. – С. 1-7



## JADIDCHILIK HARAKATINING IJTIMOYIY-SIYOSIY MOHIYATI VA JADIDLAR TAFAKKURI

*Xomidova Sevinch Shuhratbek qizi*

*Andijon Davlat Universiteti*

*Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Abdullayev Bekzod Xusniddin o'g'li*

*Ilmiy Rahbar: O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'zbekistonning milliy davlat sifatida rivojlanish yo'liga o'tishi tarixiy xotirani tiklashga, milliy o'zlikni anglashga mezon yaratdi. 70 yillik sho'rolar istibdodi davrida o'zbek xalqining va umuman, Markaziy Osiyo xalqlarining ozodlik kurashi sahifalari kommunistik mafkura tazyiqi ostida ongli ravishda soxtalashtririldi. XIX-XX asrlardagi sharoitda milliy ozodlik harakatining, shu jumladan, uning alohida ijtimoiy- siyosiy oqimlarining tarixiy jarayondagi o'rni va ro'lini xolisona o'rganish, dolzarb masala sifatida ilmiy doiraga chiqdi.

**Kalit so'zlar:** Jadidlar, milliy qadriyat, jadidlar mafkurasi, demokratik inqilob, Behbudiy, Turkiston jadidlari, mustaqillik.

**Abstract:** Uzbekistan's transition to development as a nation-state created a criterion for restoration of historical memory and realization of national identity. During the 70-year dictatorship of the Soviets, the pages of the liberation struggle of the Uzbek people and the people of Central Asia in general were deliberately falsified under the pressure of communist ideology. In the conditions of the 19th and 20th centuries, an objective study of the place and role of the national liberation movement, including its separate socio-political currents, in the historical process, has become a scientific issue.

**Key words:** Jadids, national value, ideology of Jadids, democratic revolution, Behbudi, Jadids of Turkestan, independence.

**Аннотация:** Переход к обновлению Узбекистана как национального государства создал критерий восстановления исторической памяти и реализации национальной идентичности. В период 70-летней диктатуры Советов страницы освободительной борьбы узбекского народа и народов Средней Азии в целом сознательно фальсифицировались под давлением коммунистической идеологии. Таким образом, в научную сферу вышло объективное исследование места и роли национально-освободительного движения XIX-XX веков в историческом процессе отдельных политических движений, вопросов производства. общественно- политических движений, вопросов производства.

**Ключесые слова:** Джадиды, национальная ценность, идеология джадидов, демократическая революция, Бехбудии, джадиды Туркестана, независимость.

## KIRISH

Yurtimiz tarixida ko‘plab ilm egalari chiqqan ammo bular orasida jadidlar nomini olgan insonlar alohida o‘rin egallaydi. Ular insonlarni ilm nuri orqali ko‘zlarini ochmoqchi bo‘lishgan shuning natijasida esa mustaqib sovet tuzumi tomonidan qatag‘on qilingan.

**Tadqiqot metodlari:** Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy holislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

**Natijalar:** Jadidchilik, ma‘rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Turkistondagi mustamlaka, uning turli tanazzulga yuz tutganligi, xalqning og‘ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongda turg‘unlik – jadidlarni jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo‘llarini izlab topishga chorladi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida "Taraqqiy", shu yili Munavvarqori rahbarligida "Xurshid" 1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida "Shuhrat" ro‘znomalari chop etilgan.

Lekin tez orada chir ma‘muriyati o‘zining eksporti N.P.Ostroumovning bildirishnomasiga asoslanib, bu ro‘znomalarni man etdi [1]. Ma‘rifatchilikning yangi to‘lqinida 1913-1915-yillarda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg‘ona" ro‘znomalari, "Oyna" jurnali 1917-yilda esa "Xurriyat", "Farg‘ona" sahifasi kabi ommaviy axborot vositalari paydo bo‘ldi. Jadidlarning o‘zlari ham talaba yoshlar edi. Sharq ham G‘arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o‘qidilar va o‘zgalarni ham shunga davat etdilar. Jadidlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta‘lim taraqqiyoti darajasini ko‘ra oldilar, ularni solishtirdilar va bu zehni yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo‘ldi. Natijada, jadidlarning diqqat markaziga birinchi bosqichda ta‘limni isloh etish vazifasi qo‘yildi. Ular bunday islohotlarni o‘tkazish zaruratini nafaqat nazariy jihatdan isbotlab berdilar, balki yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o‘quv zallari ochib, darsliklar yozib, o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga kata kuch sarfladilar. So‘ngga ma‘lumotlarga qaraganda, dastlabki jadid maktablari 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Toshkentda Mannon Qori va shu yili Andijonda Shamsiddin domlalar tomonidan ochilgan. XX asr boshlarida bu harakat tezlik bilan rivojlanib ketdi. Jadidlar o‘z asarlarida "Ayrim ruhoniylarning o‘z manfaatlari yo‘lida islom mohiyatini buzib ko‘rsatganliklarini tanqid qiladilar va dindan foydalanilgan siyosiy tadbirlar qanchalar og‘ir oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatib beradilar" [2]. Milliy ziyolilarning o‘zagini tashkil etuvchi jadidchilikning ko‘zga ko‘ringan vakillari – Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Ubaydullo Asadullaxo‘ja o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Toshpo‘lat Norbo‘tayev (Toshkent), Mahmudxo‘ja Behbudiy, Xoja Muin Shukrullo, Abdulqodir Shakuriy (Samarqand), Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat,

Ubaydullo Xo'jayev (Buxoro), Ashurali Zohidiy, Po'lat Soliyev, Obidjon Mahmudov (Qo'qon), Nosirxonto'ra Komolxonto'rayev, Is'hoqxon Ibrat (Namangan) kabilar harakatning yetakchilari edilar. N. O. Ostroumov aytgan: "Rus hukumati mahalliy aholini rus xalqi bilan aralashtirishga harakat qilishi kerak. Shu yo'nalishda mahalliy aholining maorifini ma'lum darajada rivojlantirish lozim" [3].

Jadidlar mafkurasida hozirgi kunda jamiyatni tashvishga solayotgan – dinning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini to'g'ri tushunish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun muhim shartlar bo'lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni egallash muammolarini hal etish lozim edi. Jadidlar islomning taraqqiyparvar ro'lini tushuntirish bilan ta'lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruratini tushuntirishga intilganlar. Qur'on va uning tafsirini juda yaxshi bilgan Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalaridan birida Qur'on oyatlari va hadislardan namunalar keltirish bilan islom xalq ta'limi va barcha fanlarga, jumladan, tarix faniga qay darajada kata ahamiyat berganligini isbotlab bergan. U islom tarixini bilmasligi oqibatida, aksariyat hollarda, o'ng'aysiz vaziyatga tushib qoladigan din peshvolarini tanqid qiladi.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906-yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Progressiv kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. O'tmishga nazar solib, uni o'rtanib, o'z davrini tahlil qilgan jadidlar o'z Vatanining kelajagi loyihasini tuza bildilar, uning rivojlanish yo'llarini rejalashtirdilar. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ta'lim olganlari, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy she'riyati, qadimgi Sharq mutafakkirlarining falsafiy asarlari ruhida tarbiyalanganlari holda, o'z bilimlarini chet el madaniyati, jumladan, ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar.

Markaziy Osiyo jadidchiligida Turkiya va 1905-1911-yillardagi Eron inqiloblari sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu mamlakatdagi milliy ziyolilar vakillari monarx hokimiyatining konstitutsion doirada cheklanishiga, milliy burjuaziyaning iqtisodiy qudratini mustahkamlash uchun shart-shariotlarni qo'lga kiritishga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar.

Jadidlarning diqqat markazida yana, madaniy meros va xalqning o'z- o'zini anglashi to'g'risidagi muhim masalalar ham turgan. Muhiddin Darsaodat kitobxonlarga xalq qay darajada ulkan madaniy va ilmiy merosga ega ekanligini eslatib turgan edi. Unga ko'ra, Farobiy, Ibn Sino, Ulug'beklar haqiqatdan ham O'rta Osiyodagi ijtimoiy va ilmiy islohotlarning asoschilaridir. Jadidlarning fikricha,

Turkistonda taraqqiyotga erishishning bosh asosi iqtisodiyotni zarur oqimda rivojlantirishdadir. Shungdek, ular muhim muammolaran biri deb milliy matbuot va xalq ta'limini rivojlantirishni ham hisoblaganlar. Toj. Rizobaldi "Milliy matbuotsiz millatning o'zi yo'q" - deb yozganida, ancha ilgariga nazar tashlagan edi. Jadidlarning qarashlarini aniqlash uchun, Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotining turli dolzarb yo'nalishlariga bag'ishlangan bir qator yillardagi ishlarni kompleks o'rganib chiqish zarur. Ammo Turkiston tarixiga chuqur kirishish, uning taraqqiyotining gullab-yashnagan davrlarini ham, inqirozga uchragan bosqichlarini ham o'rganib chiqish jadidlarning amaliy, ma'rifatparvarlik faoliyatining muhim ko'makchisi bo'lgan. Ularning tarixiy asarlarini maxsus va sinchiklab o'rganishni talab etuvchi ko'p sonli publikatsiyalar tashkil etadi. Jadidlarning o'z Vatani tarixiga qiziqishlari keng va ko'p qirrali ekanligini tushunish uchun esa, Fitratning "Tarixiy va tanqidiy", "Istanbul", "Tarixi Muhammadiy", "Islomning muxtasar tarixi", Mirzo Qorining "O'z hollarimiz", Ibratning "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon ul-zamon", Behbudiyning "Mirzo Ulug'bek", "Buxoro", "Tarix va jo'g'rofiya", "Xayrul umuri Avsatuxo", "Sart so'zi majxuldir", Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", M. Muhammadjonovning "Turmush urinishlari" kabi asarlarini sanab o'zi kifoya.

Jadidlar nafaqat Vatanga va milliy qadriyatlarga munosabati bilan, ayni paytda umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushunishda ham tarixiy namuna bo'lishlari mumkin. Ular hech qachon milliy doirada cheklanib qolmaganlar va ularning G'arb sivilizatsiyasi tomon intilishlarini tushunish mumkin. O'sha paytda G'arb, texnologiya va ishlab chiqarish darajasi jihatidan Sharqqa nisbatan ancha ilagrilab ketgan edi. Jadidlar o'zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning birligi asosida tasavvur etardilar. Bu haqda Behbudiy shunday degandi: "Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman, barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Agar biz Turkiston musulmonlari, birgalikda islohotlar o'lkamizni istasak, bizning ziyolilar, ma'rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va vatan farovonligiga xizmat qilishlari kerak... Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi avvalo, o'zimizning noittifoqligimizdir!" [4].

**Xulosa:** Rivojlangan davlat qurishdagi o'z g'oyalarini amalga oshirishda jadidlar mustaassiblik, layoqatlik, qoloqlikka qarshi qarshi kurashga alohida ahamiyat berganlar. Bu vaziyatlarni amalga oshirishda ular taraqqiyparvar, bilimli yoshlarga tayanganlar. Ular o'z ishlarida Yevropa davlatlari taraqqiyotga qanday yo'llar bilan yetib kelganligini aks ettirib, asoslashga tarixiy misollar keltirganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitishni zarur deb hisoblaganlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана, Ташкент, 1995. -С.109.
2. Behbudiy M. Tarix va jo'gtofiya//Oyna.-1914.-N\_°27.-B.502-505
3. "Sharq yulduzi ", 1992-yil, 10-son, 173b
4. Behbudiy M.Bayoni haqiqat//Ulug' Turkiston.-1917.12-iyun.
5. J. Tulenov „Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka “ „Sharq “ 2000 y T.
6. I. A. Karimov „Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q “ Toshkent. Sharq. 1998 yil

## О‘ЗBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMIZLARINI QABUL QILISHINI VA ULARNING AHAMIYATI

*Isomiddinov Abrorbek Sherzodbek o‘g‘li*

*Andijon davlat universiteti “Tarix” fakulteti 3-kurs talabasi*

*Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li*

*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi*

**Abstrakt:** Ushbu maqolada O‘zbekiston respublikasi mustaqil bo‘lganidan kegin O‘zbekistonni davlat sifatida Shakllanishi uchun zarur bo‘lgan ramizlar to‘grisida ma’lumot berilgan. Hamma davlatni o‘z ramzlar bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ramzlar muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zi:** Bayroq, Gerb, Madixya, Ramzlar, Konstitutsiya, Qonunlar, Davlatchiligimiz.

**Abstract:** This article provides information about the symbols necessary for the formation of Uzbekistan as a state after the independence of the Republic of Uzbekistan. Symbols are important in Uzbekistan, just like every country has its own symbols.

**Key words:** Flag, Coat of Arms, Madikhya, Symbols, Constitution, Laws, Our Statehood.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о символах, необходимых для становления Узбекистана как государства после обретения независимости Республики Узбекистан. Символы важны в Узбекистане, так же, как каждая страна имеет свои собственные символы.

**Ключевые слова:** Флаг, Герб, Мадихья, Символика, Конституция, Законы, Наша государственность.

### **Kirish.**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng boshqa davlatlar kabi o‘z Ramizlarini ishlab chiqdi, jumladan Davlat Bayrog‘i, Davlat Gerbi, Davlat Madihyasi, Davlat Konstitutsiyasiga ega bo‘ldi. Bu ramizlar Davlat uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularsiz davlat to‘la to‘kkis bo‘lmaydi. Ramzlar Davlatni ajralmas bir bo‘lagidir.

### **Natija.**

Bayroq “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan [1]. Uning rasmiy o‘lchamlari uzunligi 250 sm, kengligi 125 sm ga teng. Rassom: Pyotr Annenkov. Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan

bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli.

Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

Gerb 1992-yil 2-iyulda Oliy Kengashning 10-sessiyasida tasdiqlangan [2]. Mualliflari: Anvar Mamajonov, Pyotr Annenkov Davlat gerbi dumaloq ko'rinishga ega bo'lib, bu shaklning so'l tomoni rizq-ro'zimiz timsoli — bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa o'zbekning dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz — chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan, uzoqdagi tog'lar va daryolar manzarasida gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi, ayni paytda bu O'zbekistonning serquyosh mamlakat ekanligini ham bildiradi. Gerbning yuqori qismida esa O'zbekiston ozodligining ramzi sifatida sakkizburchak yulduz, uning ichki qismida yarimoy va yulduz ma'nosi mamlakat aholisining ko'p qismi islom diniga etiqod qilishi, markazida — baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Xumo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar tasma „O'zbekiston“ deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning 11-sessiyasida qabul qilingan. Ushbu konstitutsiyaning tuzilishi quyidagicha; Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 modda [3].

2023-yil 30-aprelda Konstitutsiya yangilandi. Ushbu yangilanishga ko'ra konstitutsiya 6 bo'lim 27 bob 155 moddadan iborat bo'ldi. Ushbu yangi konstitutsiyaning muqaddimasida shunday yozilgan edi: “Biz O'zbekistonning yagona xalqi, Inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib,

Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib,

Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda,

Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib,

Mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib,

Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda,

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib,

Fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda,

Ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz.” Bu orqali o‘zbek xalqining barcha xalqlarni hurmat qilishi hamda ushbu xalqlar bilan teng ekanligi, o‘zgalarning mustaqilligini hurmat qilishi e’lon qilingan.

O‘zbekiston davlat madhiyasini musiqasini Mutavakkil (Mutal) Burhonov bastalagan. Davlat madhiyasi — (yunon. Hymnos — gimn, tantanali qo‘shiq) Vatanni, davlatni, tarixiy voqealarni, ularning qahramonlarini ulug‘lovchi she’riy-musiqiy asar, davlatning ramzlaridan biri. Madhiya tantanali qo‘shiq bo‘lib, rasmiy davlat marosimlari, bayram tantanalarida, davlat delegatsiyalari, mehmonlarni kutib olish va kuzatish chog‘ida ijro etiladi. Davlat madhiyasi ijro etilganda hamma ishtirokchilar o‘rnidan turadi. Harbiylar qo‘llarini chakkalariga tekizganicha („chest“ berib) turadi, fuqarolar bosh kiyimlarini yechib, tikka, qo‘lni ko‘krakka qo‘yib tinglaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi gerb va bayroq bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrda 768-XII-sonli O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risidagi Qonuni bilan tasdiqlangan.

Qonunda madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi, unga katta ehtirom bilan qarash har bir yurtdoshimizning vatanparvarlik burchidir, deb belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston fuqarolari, shuningdek, mamlakatimizda yashab turgan boshqa shaxslar ham madhiyamizni hurmat qilishi shartligi alohida ta’kidlangan.

Davlat madhiyasining muallifi O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bo‘lib, musiqasini O‘zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustalika ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o‘tmishimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimiz, tinchligimiz, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg‘ular tarannum etilgan.



Madhiya — qalbida o‘z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bor har qanday kishida milliy g‘urur, o‘ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg‘otadi. Bu milliy timsolda xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o‘yi, maslak-maqsadi mujassam. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi yoshlarda Vatanga muhabbat, boy tariximizga, milliy o‘zligimizga chuqur hurmatni shakllantirishda, farzandlarimizning har tomonlama barkamol va yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishida muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasida yuksak ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

#### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha ramzlarini yangilangan xolda ishlab chiqdi. Ramzlarni har birini davlatimiz uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan Konstitutsiyani oladigan bo‘lsak konstitutsiya davlatni boshqarishda, nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar.**

1. Lex Uz. URL: <https://lex.uz/acts/-100122>
2. Lex Uz. URL: <https://lex.uz/docs/-17260?ONDATE=02.07.1992>
3. Shamsutdinov R., Mo‘minov H. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Akademnashr, 2019. –B 453.

## MUSTAQIL SUD TIZIMI O‘ZBEKISTONDA QURILAYOTGAN DEMOKRATIK JAMIYATNING ASOSI

*Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*

*Andijon davlat universiteti*

*“Tarix” fakulteti 3-kurs talabasi*

**Absrakt:** Ushbu maqolada, O‘zbekiston Respublikasini demokratik davlatga aylantirishda sud institutining ahamiyati, hamda ushbu organning boshqa davlat institutlaridan mustaqil faoliyat olib borishining afzalliklari, bu organ qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlar hamda ularning tarixiy ahamiyati va buning O‘zbekiston xalqi uchun ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Demokratiya, islohot, izchillik, qonun, xalqaro me‘yor, norma.

**Abstract:** In this article, the importance of the judicial institution in the transformation of the Republic of Uzbekistan into a democratic state, as well as the advantages of this body's independent activity from other state institutions, the changes made to the legislation of this body and their historical significance and its importance for the people of Uzbekistan are highlighted.

**Key words:** Democracy, reform, consistency, law, international standard, norm.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение судебного института в преобразовании Республики Узбекистан в демократическое государство, а также преимущества независимой деятельности этого органа от других государственных институтов, изменения, вносимые в законодательство этого органа и подчеркнута их историческое значение и значение для народа Узбекистана.

**Ключевые слова:** Демократия, реформа, последовательность, право, международный стандарт, норма.

### Kirish

XXI asrda yashayotgan bo‘lsakda hali-hanuz, butun dunyodagi davlatlarda demokratik davlat boshqaruv tizimi to‘la joriy etilmagan. Umuman olganda demokratik boshqaruv tizimiga ega davlatlarning deyarli barchasi iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshqa nodemokratik yoki o‘tish harakteriga ega bo‘lgan davlatlardan ancha ustun turadi. Buning o‘ziga yarasha muhim sabablaridan biri shundaki, demokratik boshqaruv tizimiga ega davlatlarda pluralizm yani fikrlar xilma-xilligiga to‘liq amal qilinadi. Bu esa iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy masalalarda eng optimal yechimlarni topishni osonlashtiradi. Eng muhimi esa demokratik rejim ostidagi davlatlarda qonun ustuvorligi hamda fuqarolarning tengligi hisoblanadi. Tabiiyki ushbu oxirgi ikki shartni bajarish uchun kuchli davlat institutlari tashkil etish kerak. Bunda sud

organining muhimligi yuqori hisoblanadi, chunki jinoyatchilarga qanday jazo qo'llanilishini belgilash ushbu organning vazifasi.

### Natijalar

Ushbu organga "Oxford Languages" lug'ati quyidagicha ta'rif beradi: "sud – fuqarolik va jinoiy holatlar bo'yicha sud vazifasini bajaruvchi sudya raisligidagi guruh, sudya yoki hakam" [1]. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da sud terminiga shunday ta'rif berilgan: "Sud (*slavyancha*, sud – "ish") — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Sud boshqa davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va har qanday shaxsdan mustakil va xolisona faoliyat yuritishi, barcha ishlarni faqat qonunga bo'ysunib ko'rib chiqishi va hal etishi lozim" [2]. Bundan tashqari "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "sud" deb — (qadimgi rus tilida, sud — "ish"; "hukm") 1. Muayyan fuqaroviy (ayrim shaxslar yoki muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi, shaxslar bilan muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi) nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi. 2. Shunday organ joylashgan bino, xona, joy. 3. Shunday organ xodimlari yoki sudyalarning hay'ati. 4. Fuqaroviy yoki jinoiy ishning shunday organda ko'rilishi [3].

Buning uchun yurtimizda ayrim muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 1993-yildagi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi qoidasiga qat'iy rioya qilinishini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amalga oshirishi belgilangan edi [5]. 2000-yildagi qonunning 11-moddasida esa bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashiga o'tkazildi. Yuqorida aytib o'tilgan hokimiyatning bo'linish prinsiplari qonuniyati, aynan ushbu o'zgarish orqali mustahkamlandi [6].

Ayni ushbu jarayon fonida yana sudyalarning daxlsizligi huquqi masalalari ham ko'tarildi. Sudyalarning daxlsizligi huquqi 1993-yilda qabul qilingan qonunning 70-moddasida, 2000-yildagi qonunning 70-moddasida belgilangan bo'lsa 2021-yilda qabul qilingan qonunda ushbu huquqqa ko'proq e'tibor berilgan holda 64-moddada belgilab qo'yilgan. Har uchchala qonunda ham sudyalarga nisbatan jinoyat ishini faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek sudyalarga qurol berish masalasi ham turli davrlardagi qonunlarda quyidagicha belgilangan. 1993-yildagi qonunning 70-moddasida hamda 2000-yildagi qonunning 70-moddasida (bu moddaning 2-qismidan 2017-yil 12-aprelda "Oliy xo'jalik sudi raisi" degan so'z

chiqarib tashlangan) “Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash maqsadida ularga tegishli O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisi, Oliy xo‘jalik sudi Raisi, Adliya vaziri tomonidan belgilangan ro‘yxatga binoan o‘qotar qurol beriladi. Zarur hollarda esa, tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi unga va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.” deyilgan bo‘lsa, 2021-yildagi qonunning 64-moddasi 2-qismida “Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash maqsadlarida ularga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha saqlash, olib yurish va undan foydalanish huquqi bilan xizmat quroli hamda shaxsiy himoya vositalari beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.” deb ko‘rsatilgan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki sudyalarning daxlsizligini saqlash masalasi, ushbu islohotlar natijasida yanada mustahkamlandi hamda sud organining ijroiya hokimyatidan mustaqil holda faoliyat olib borishi prinsipini yanada mustahkamladi [7].

Yuqorida amalga oshirilayotgan islohotlar korrupsiya, tanish bilishchilik va shu singari ishlarni oldini oladi. Sud organining mustaqilligi esa siyosiy pluralizmning bo‘g‘ilishini oldini oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oxford Languages. URL: <https://languages.oup.com/google-dictionary-en>
3. Суд // *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б.106.*
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли / Таҳрир хайъати: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – В.580-581.
5. LexUz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-68425>
6. LexUz. URL: <https://lex.uz/docs/-68532>
7. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). COURT LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 517–520. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6493>

## MUSTAQIL SUD TIZIMI O‘ZBEKISTONDA QURILAYOTGAN DEMOKRATIK JAMIYATNING ASOSI

*Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*

*Andijon davlat universiteti*

*“Tarix” fakulteti 3-kurs talabasi*

**Absrakt:** Ushbu maqolada, O‘zbekiston Respublikasini demokratik davlatga aylantirishda sud institutining ahamiyati, hamda ushbu organning boshqa davlat institutlaridan mustaqil faoliyat olib borishining afzalliklari, bu organ qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlar hamda ularning tarixiy ahamiyati va buning O‘zbekiston xalqi uchun ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Demokratiya, islohot, izchillik, qonun, xalqaro me‘yor, norma.

**Abstract:** In this article, the importance of the judicial institution in the transformation of the Republic of Uzbekistan into a democratic state, as well as the advantages of this body's independent activity from other state institutions, the changes made to the legislation of this body and their historical significance and its importance for the people of Uzbekistan are highlighted.

**Key words:** Democracy, reform, consistency, law, international standard, norm.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение судебного института в преобразовании Республики Узбекистан в демократическое государство, а также преимущества независимой деятельности этого органа от других государственных институтов, изменения, вносимые в законодательство этого органа и подчеркнута их историческое значение и значение для народа Узбекистана.

**Ключевые слова:** Демократия, реформа, последовательность, право, международный стандарт, норма.

### Kirish

XXI asrda yashayotgan bo‘lsakda hali-hanuz, butun dunyodagi davlatlarda demokratik davlat boshqaruv tizimi to‘la joriy etilmagan. Umuman olganda demokratik boshqaruv tizimiga ega davlatlarning deyarli barchasi iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshqa nodemokratik yoki o‘tish harakteriga ega bo‘lgan davlatlardan ancha ustun turadi. Buning o‘ziga yarasha muhim sabablaridan biri shundaki, demokratik boshqaruv tizimiga ega davlatlarda pluralizm yani fikrlar xilma-xilligiga to‘liq amal qilinadi. Bu esa iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy masalalarda eng optimal yechimlarni topishni osonlashtiradi. Eng muhimi esa demokratik rejim ostidagi davlatlarda qonun ustuvorligi hamda fuqarolarning tengligi hisoblanadi. Tabiiyki ushbu oxirgi ikki shartni bajarish uchun kuchli davlat institutlari tashkil etish kerak. Bunda sud

organining muhimligi yuqori hisoblanadi, chunki jinoyatchilarga qanday jazo qo'llanilishini belgilash ushbu organning vazifasi.

### Natijalar

Ushbu organga "Oxford Languages" lug'ati quyidagicha ta'rif beradi: "sud – fuqarolik va jinoiy holatlar bo'yicha sud vazifasini bajaruvchi sudya raisligidagi guruh, sudya yoki hakam" [1]. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da sud terminiga shunday ta'rif berilgan: "Sud (*slavyancha*, sud – "ish") — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Sud boshqa davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va har qanday shaxsdan mustakil va xolisona faoliyat yuritishi, barcha ishlarni faqat qonunga bo'ysunib ko'rib chiqishi va hal etishi lozim" [2]. Bundan tashqari "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "sud" deb — (qadimgi rus tilida, sud — "ish"; "hukm") 1. Muayyan fuqaroviy (ayrim shaxslar yoki muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi, shaxslar bilan muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi) nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi. 2. Shunday organ joylashgan bino, xona, joy. 3. Shunday organ xodimlari yoki sudyalarning hay'ati. 4. Fuqaroviy yoki jinoiy ishning shunday organda ko'rilishi [3].

Buning uchun yurtimizda ayrim muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 1993-yildagi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi qoidasiga qat'iy rioya qilinishini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amalga oshirishi belgilangan edi [5]. 2000-yildagi qonunning 11-moddasida esa bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashiga o'tkazildi. Yuqorida aytib o'tilgan hokimiyatning bo'linish prinsiplari qonuniyati, aynan ushbu o'zgarish orqali mustahkamlandi [6].

Ayni ushbu jarayon fonida yana sudyalarning daxlsizligi huquqi masalalari ham ko'tarildi. Sudyalarning daxlsizligi huquqi 1993-yilda qabul qilingan qonunning 70-moddasida, 2000-yildagi qonunning 70-moddasida belgilangan bo'lsa 2021-yilda qabul qilingan qonunda ushbu huquqqa ko'proq e'tibor berilgan holda 64-moddada belgilab qo'yilgan. Har uchchala qonunda ham sudyalarga nisbatan jinoyat ishini faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek sudyalarga qurol berish masalasi ham turli davrlardagi qonunlarda quyidagicha belgilangan. 1993-yildagi qonunning 70-moddasida hamda 2000-yildagi qonunning 70-moddasida (bu moddaning 2-qismidan 2017-yil 12-aprelda "Oliy xo'jalik sudi raisi" degan so'z

chiqarib tashlangan) “Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash maqsadida ularga tegishli O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisi, Oliy xo‘jalik sudi Raisi, Adliya vaziri tomonidan belgilangan ro‘yxatga binoan o‘qotar qurol beriladi. Zarur hollarda esa, tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi unga va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.” deyilgan bo‘lsa, 2021-yildagi qonunning 64-moddasi 2-qismida “Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash maqsadlarida ularga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha saqlash, olib yurish va undan foydalanish huquqi bilan xizmat quroli hamda shaxsiy himoya vositalari beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.” deb ko‘rsatilgan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki sudyalarning daxlsizligini saqlash masalasi, ushbu islohotlar natijasida yanada mustahkamlandi hamda sud organining ijroiya hokimyatidan mustaqil holda faoliyat olib borishi prinsipini yanada mustahkamladi [7].

Yuqorida amalga oshirilayotgan islohotlar korrupsiya, tanish bilishchilik va shu singari ishlarni oldini oladi. Sud organining mustaqilligi esa siyosiy pluralizmning bo‘g‘ilishini oldini oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oxford Languages. URL: <https://languages.oup.com/google-dictionary-en>
3. Суд // *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд.* – Тошкент: *Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004.* – Б.106.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли / Таҳрир хайъати: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; – Тошкент: *Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.* – В.580-581.
5. LexUz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-68425>
6. LexUz. URL: <https://lex.uz/docs/-68532>
7. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). COURT LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 517–520. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6493>

## О‘ЗBEKISTONNING LOGISTIK IMKONIYATLARI

*Muxammadjonov Muhammaddiyorbek Muzaffar o‘g‘li*  
*Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

*Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li*

*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi*

**Abstrakt:** Bu maqolada Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Pokiston, Rossiya, NATO va Xitoy Xalq Respublikasining o‘zaro munosabatlarining buzilishi va buning natijasida Xitoy uchun O‘zbekiston Respublikasining logistika tizimini ahamiyati ortishi. Bundan O‘zbekiston Respublikasi qanday foyda olishi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** temir yo‘l, quvur yo‘li, dengiz yo‘llari, iqtisodiy aloqa, eksport, import.

**Abstract:** In this article, the breakdown of relations between the United States of America, India, Pakistan, Russia, NATO and the People's Republic of China and, as a result, the increasing importance of the logistics system of the Republic of Uzbekistan for China. It will be explained how the Republic of Uzbekistan will benefit from this.

**Key words:** railway, pipeline, sea routes, economic communication, export, import.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается разрыв отношений между Соединенными Штатами Америки, Индией, Пакистаном, Россией, НАТО и Китайской Народной Республикой и, как следствие, возрастание значения логистической системы Республики Узбекистан для Китая. Будет объяснено, какую выгоду от этого получит Республика Узбекистан.

**Ключевые слова:** железная дорога, трубопровод, морские пути, экономическое сообщение, экспорт, импорт.

### Kirish

Butun insoniyat tarixi davomida savdo yo‘llari o‘zining muhim iqtisodiy va siyosiy ahamiyatiga ega bo‘lgan. Bunday muhim savdo yo‘llarga egalik qilish uchun esa qudratli davlatlar o‘rtasida ko‘pincha urshlar kelib chiqqan biroq bazi holatlarda urush qilishdan ko‘ra yangi savdo yo‘llarini ochish manfaatliroq bo‘lgan. Bunday holat Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) uchun ham hos bo‘lib qolmoqda

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan rivojlangan davlatlarda iqtisodiy, harbiy, texnologik, ilmiy, siyosiy jihatdan kata yutuqlarga erishdilar. Bu yutuqlardan aksar davlatlar AQShning bir qutbli dunyo modeliga qarshi chiqish va ko‘p qutbli dunyo modeli holatida global kuchga aylanish uchun foydalanishga harakat qila boshladilar. Bu esa dunyo okeanida etakchi bo‘lgan Qo‘shma Shtatlar nazoratidagi suv yo‘llaridan voz kechishni talab etdi. Dengiz



yo'llarida harakat qilish uchun alternativ bo'lgan bir qancha yo'llar mavjud bo'lsa-da, lekin bunday yo'llarga nisbatan Xitoy uchun shabhasiz eng xavfsiz va qulay yo'l sifatida qadimdan Buyuk Ipak yo'li o'tgan O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi muhim hisoblanadi. Albatta bugungi kunning eng gigant eksport va importchilaridan biri hisoblangan Xitoyning savdo yo'llarini O'zbekiston orqali olib o'tishi ham mamlakatimiz uchun foydali.

### **Tadqiqot metodlari**

Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy holislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

### **Natijalar**

Ma'lumki Xitoyda Den Syaopin boshchiligidagi "pragmatiklar" tomonidan olib borilgan islohotlardan so'ng Xitoy iqtisodiyoti shiddat bilan o'sa boshladi [1]. SSSR qulagandan so'ng ham Xitoy iqtisodiyoti tez o'sishda davom etgan bo'lsada, uning AQSh bilan munosabatlari yomonlasha boshladi. Bunga Xitoyning Shimoliy Koreyani qo'llab quvvatlashi, Jahon bozorida AQShning o'rnini egallay boshlagani, AQShning ittifoqchilar hisoblangan Janubiy Koreya, Yaponiya, Tayvan va boshqa bir qancha davlatlar manfaatiga zid olib borilgan siyosat kabilar sabab bo'ldi. Qo'shma Shtatlar Xitoy iqtisodiyoti va harbiy salohiyati tez rivojlanib borayotgani tufayli XXI asr taqdiri Uzoq Sharqda hal bo'lishini tahmin qilgan holda bu mintaqani faol harbiylashtira boshladi.

2023-yil holatiga ko'ra AQShning dengiz ortidagi 750 harbiy bazasining 313 tasi Sharqiy Osiyoda joylashtirildi [2]. Buni esa Xitoy o'zi uchun katta xavf sifatida qabul qildi. Chunki Xitoy tashqi savdosining 60 foizi hamda gaz va neft importuning deyarli 70 foizi Malakka bo'g'izidan o'tadi (1-rasm) [3].

Bu esa Xitoyni quruqlik orqali yoki dengizda AQSh tasiri yetmaydigan yo'llarni qidirshga majbur qildi. Bular orasida Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Pokiston, Afg'oniston kabi davlatlardan o'tuvchi yo'llar bor edi. Ushbu mamlakatlarga temir yo'llar qurish orqali Xitoy Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika va uzoq kelajakda Amerika qit'asi bilan ham bog'lanishni reja qilgan edi.

Rossiya orqali borish mumkin bo'lgan yo'l 2022-yil 24-fevral sanasidan boshlangan Rossiya-Ukraina ziddiyatlari sababli nomalum muddatga yopildi [4]. Rossiya bilan NATO davlatlari orasida boshlangan o'zaro ishonmaslik holati sababli ikki tomon o'rtasida qarama-qarshi tarafning bosqini xavfidan qo'rqish hissi ham bu yo'nalishni Xitoy uchun berkitdi.

Pokiston orqali Arabiston dengiziga chiqish imkoniyati ham mavjud ammo bu yo'l Hindiston (Bxarat) va Pokiston o'rtasida Kashmir uchun urush sababli xavfli hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu mamlakat orqali o'tuvchi temir yo'l loyihasini davom ettirish Xitoy budjeti uchun ham qimmatga tushadi.

Ayni ushbu tarixiy vaqt oralig'ida Hindiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar ham hududiy davolar tufayli ancha yomonlashganligini hisobga olsak Xitoy Pokiston orqali o'tuvchi yo'llarga katta umid bog'lay olmaydi. Hozirgacha ushbu davlatlar o'rtasida chegaraviy mojarolar davom etib kelmoqda.

Yuqoridagi sabablarni inobatga olsak Xitoy uchun eng maqbul yo'l O'zbekiston va Qirg'izistondan o'tuvchi temir yo'l hisoblanadi. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'l loyihasi 1990-yillardayoq muhokamaga qo'yilgan biroq bu muhokamalar faqat O'zbekiston Respublikasining yangi prezidenti Shvkat Mirziyoyev davridagina o'z yechimini topdi. Ushbu yo'lning qiymati tahminan 5 milliard dollarni tashkil etadi va tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan [5]. Bu mablag'ning 2017-yildagi O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tovar ayrboshlash qiymatiga tengligi ham yo'lning qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi [6]. Bundan tashqari kelajakda ushbu temir yo'l asosida turli yo'nalishlarga temir yo'l liniyalarini yo'naltirish va mamlakatimiz orqali neft-gaz quvurlarini ham o'tkazish mumkin. Ushbu yo'l orqali neft-gazga boy Fors ko'rfazi, Kavkaz, texnologik jihatdan rivojlangan Yevropa, Xitoy tovarlarini sotish qulay bo'lgan Yaqin Sharq va Afrika kiradi (2-rasm).

Rejalashtirilgan yo'llarga nisbatan ushbu temir yo'l narx jihatidan ham ancha ustunliklarga ega. Misol uchun 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, yangi Xitoy-Pokiston yo'lining narxi 400 milliard yuan yoki 57,7 milliard AQSh dollariga baholangan [7]. Bu ham shuni ko'rsatadiki, Xitoy uchun ham xavfsiz, ham arzon, ham iqtisodiy zarur mintaqalarga chiqish imkonini beruvchi yo'l O'zbekiston orqali o'tadi.

Albatta ushbu temir yo'l O'zbekiston iqtisodiyotiga ham katta ta'sir qiladi. Bu avvalo mahsulot tashish narxining pastlashi hamda mahsulotlarni uzluksiz va tez yetkazib berilishiga imkon beradi. Temir yo'l orqali tashiluvchi yuklardan olinadigan tranzit boj O'zbekiston Respublikasi budjetiga qo'shimcha kiritib bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lafasov M. Jahon tarixi (1918-2014). – T.: TURON-IQBOL, 2018. –B.260.
2. Democracy Now! URL: [https://www.democracynow.org/2023/2/14/david\\_vine\\_us\\_bases\\_china\\_philippines](https://www.democracynow.org/2023/2/14/david_vine_us_bases_china_philippines)
3. Warsaw Institute. URL: <https://warsawinstitute.org/china-malacca-dilemma/>
4. Britanica. URL: <https://www.britannica.com/event/2022-Russian-invasion-of-Ukraine>
5. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). LOGISTICS OPPORTUNITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WHY FOR CHINA?. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 25, 261–264. Retrieved from <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/997>
6. Shamsutdinov R, Mo'minov X. O'zbekiston Tarixi. – T.: Akademnashr 2019. –B.556.
7. South China Morning Post. URL: <https://www.scmp.com/news/china/science/article/3218413/china-pakistan-railway-worth-it-estimated-us58-billion-study>

## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

*Талаба: Мусурмонов Хикматулла*

*Укитувчи: Абдувахобов Шахзод*

**Annotatsiya:** Tijorat banklari tomonidan yashil loyihalarni moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

**Zamonaviy Texnologiyalardan Foydalanish:** Banklar, texnologik innovatsiyalardan foydalanarak moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va tezlashtirishlari mumkin,

**Qimmatli Ma'lumotlar Analitikasi:** Banklar, ma'lumotlar analitikasi va ma'lumotlar madaniyati yordamida yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali moliyalashtirish natijalarini ko'paytirishlari mumkin.

**O'zaro Hamkorliklar:** Tijorat banklari, boshqa korxonalar, startaplar va dasturlash loyihalari bilan hamkorlik qilish orqali yashil moliyalashtirish loyihalarini rivojlantirishlari mumkin.

**Portfel Investitsiyalari:** Banklar, yashil moliyalashtirish loyihalariga moliyalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan portfelli investitsiyalarni taqdim etish orqali moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirishlari mumkin.

**Ta'lim va Tarbiyalash:** Tijorat banklari, xodimlarini va mijozlarini yashil moliyalashtirishga oid ta'lim va tarbiyalash orqali moliyalashtirishning rivojlanishini oshirishlari mumkin. Bu yo'llar banklarga yashil loyihalarni moliyalashtirishda yordam berishi mumkin, shuningdek jamiyatga ijtimoiy va ekologik foydali natijalar olishga imkoniyat yaratadi.[1]

**Kalit so'zlar:** "yaxshil" iqtisodiyot strategiyasi, tijorat banklari, "yashil platforma", YTTB dasturi, "yashil" loyiha.

**Kirish:** Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida 2022 yil davomida amalga oshirilgan ishlar. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sish masalalari bugungi kundagi jahon iqtisodiyoti kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, O'zbekistonda ham bu borada rivojlanish bo'yicha xalqaro hamkor-tashkilotlar bilan birga qator ishlar amalga oshirildi. Xususan:

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PP-436-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash Dasturi;

- sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha Konsepsiya;
- 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha Harakatlar rejasida;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026-yilga kelib 2022 yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashning Maqsadli parametrlari;
- O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralari muvofiqlashtirish bo‘yicha Idoralararo kengash tarkibi yangilandi;
- “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘sish bo‘yicha Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi tasdiqlandi.
- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligida qo‘shimcha 4 ta shtat birligidan iborat.

Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi faoliyatini tashkil qiluvchi, “Yashil” iqtisodiyot Strategiyasi, Dasturi va Harakatlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uni Idoralararo kengash bilan o‘zaro muvofiqlashtirishga ko‘maklash ishchi organi vazifasini bajaruvchi loyiha ofisi Texnik kotibiyati tashkil etildi. Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD – Agence Française de Développement) bilan hamkorlikda 2022 yilda “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha davlat siyosati sohasida loyiha amalga oshirildi. Mazkur dastur doirasida AFD tomonidan O‘zbekiston Respublikasini “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazli tashlanmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi (MRV) tizimi joriy etish, “yashil” budjetlashtirish joriy qilish hamda boshqa yo‘nalishlarda ishlar amalga oshirish boshlandi.[2]2023 yil davomida “yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida “yashil” iqtisodiyot mavzularida seminar treninglar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Seminarlar quyidagi yo‘nalishlarda tashkillashtiriladi:

- mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilikning iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlarning ta’sirini kamaytirish bo‘yicha salohiyatlarini kuchaytirish;
- “yashil” iqtisodiyotga o‘tish ustuvorliklaridan kelib chiqib, davlat organlari boshqaruv xodimlarining boshqaruv va rejalashtirish salohiyatlarini oshirish;
- “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni doimiy baholab borish bo‘yicha davlat va xususiy tashkilotlarning texnologik salohiyatlarini mustahkamlash;
- “yashil” o‘sish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi mahalliy trenerlarni tayyorlash;

– “yashil” o’sish choralarini rejalashtirish, amalga oshirish borasida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining salohiyatini oshirish bo’yicha seminarlar tashkil qilish.

Shuningdek, “yashil” iqtisodiyot mavzularini ta’lim muassasalarining tegishli o’quv dasturlariga kiritish hamda oliy ta’lim muassasalarida “yashil” iqtisodiyot va barqaror biznes bo’yicha mutaxassislarni tayyorlash rejalashtirilgan.[2].

“Yashil” iqtisodiyot bilan bog’liq loyihalar muvaffaqiyatli bo’lishi uchun “yashil” kreditlar foydalaniladigan uskunaning o’zini qoplash muddatidan kam bo’lmagan muddatga va loyihaning rentabelligidan yuqori bo’lmagan foiz stavkasida berilishi kerak. Ba’zi mamlakatlarda yashil kredit imtiyozli sifatida tushuniladi, ya’ni u odatdagidan pastroq foiz stavkasiga ega. Ayni paytda O‘zbekistonda “yashil” loyihalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan tadbirkorlarning so‘zlariga ko‘ra, xalqaro tashkilotlar O‘zbekiston banklarida “yashil” kredit liniyalarini yaratib, u yerga mablag‘ o‘tkazayotgan bo‘lsa-da, bunday kreditlarni hozircha olishning iloji йўқ. 29 fevral kuni U-enter markazida bo‘lib o‘tgan “Yashil platforma”ning navbatdagi uchrashuvida bu borada hozirgi vaziyat qanday va bu muammoning sabablari nimada bo‘lishi mumkinligi va uni hal qilish yo‘llari muhokama qilindi, bu safar tashkilotchilar tomonidan u “2024 yilda O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes uchun tiklanadigan energiya manbalari (TEM)ni rivojlantirish” deb nomlandi. Kadrlar taqchilligi va loyihadan oldingi tayyorgarlik yo‘qligi sharoitlarida muqobil energiya manbalariga o‘tish bilan bog‘liq texnik va tashkiliy masalalar hamda bu boradagi to‘siqlarni bartaraf etishning ehtimoliy yo‘llari atroflicha va kerakli darajada muhokama qilindi. Biroq, auditoriyaning e’tiborini “yashil” o‘tishdagi yana bir to‘siq – moliyaviy to‘siq jalb qilganini va buning sabablari juda jiddiy ekanligini sezmaslik qiyin эди. Ўзбекистонда “yashil moliyalashtirish” bo’yicha yangi loyihalar e’lon qilinganidan so‘ng darhol qizg‘in muhokama бошланди. ЕТТБ vakili, katta bankir Xurshida Uzoqova GEFF II kredit liniyasi ishga tushirilganini ma’lum qildi, buning uchun 100 million dollar ajratilgan. Ular Hamkor va Ipak yuli hamkor banklari tomonidan “yashil” loyihalar uchun “yashil” kreditlar ko‘rinishida berilishi kerak, Ipoteka banki ham yaqin kelajakda ularga qo‘shilishi lozim. GEFF II dan farqi nafaqat “yashil” loyihalar uchun o‘tgan yilgiga nisbatan 40 million dollar ko‘proq ajratilganida, balki bu safar davlat va xususiy kompaniyalardan tashqari jismoniy shaxslarga ham “yashil” kreditlar berish rejalashtirilganidadir (masalan, kvartiralar va uylarning issiqlik izolatsiyasi uchun), qarz oluvchilar tomonidan taklif qilingan «yashil» loyihalarning hayotiyligini baholash uchun YETTB o‘z hamkor banklariga o‘z maslahatchilarini taqdim etadi. Undan keyin Hamkor bank va Ipak Yoli banklarining vakillari chiqdi. Shunisi e’tiborga loyiqliki, ularning hech biri o‘z nutqida “yashil” kreditlar uchun foiz stavkasini айтмади. ЕТТБнинг “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash bo’yicha moliyaviy dasturi e’lon qilinganidan so‘ng hamda hamkor banklar vakillari chiqish qilganidan

keyin sahnadan ham, zaldan ham norozilik va chora-tadbirlarning yetarli emasligidan dalolat beruvchi keskin tanqidiy mulohazalar эшитилди. Мунозарани FAMILY GROUP MCHJ QKning texnik direktori Timur Mustafayev ochib berdi, u birinchi bo'lib O'zbekistonda "yashil" loyihalar uchun mablag' topmoqchi bo'lganlar duch keladigan real foiz stavkasini aytib o'tdi – 20 foizdan yuqori. Mavzuni Amerikaning "Astorios" kompaniyasining O'zbekistondagi filialining rivojlanish bo'yicha direktori Shohrux Baratov davom ettirdi: "Biz bu yerda ishlay boshladik, shu jarayonda shunday taassurot paydo bo'ldiki, banklar bank sifatida emas, ko'proq lombard sifatida ishlayapti, chunki kreditning 120% garov ta'minoti bo'lishi kerak. Birortayam bank faqat kredit tarixi, balans va loyiha asosida quyosh batareyalari kabi montaj loyihasini moliyalashtirish uchun kredit berishini тасдиқламади". Мутахассиснинг hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda tabiiy quyosh radiatsiyasi tufayli 2-3 megavatt quvvatga ega loyiha 4 yil ichida o'zini qoplashi mumkin, bu esa Yevropa davlatlariga qaraganda ancha foydalidir. Demak, mamlakatimizda quyosh energetikasini rivojlantirish uchun xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish, ularning mablag'larini o'zlashtirish mumkin. Muammo mavjud munosabatlar тизимида. Йиғилганлар e'tiborini Ipak Yuli bankining ichki statistikasi jalb qildi, unga ko'ra, hozirgacha "yashil" kreditlarning asosiy qismi elektromobillar xarid qilish bilan bog'liq loyihalarga ajratilgan. Bu holat uchrashuv ishtirokchilarida unchalik yaxshi taassurot qoldirmadi. Paydo bo'lgan xavotirni tushunish qiyin emas. Muqobil manbalardan energiya oladigan yangi quvvatlarni ishga tushirmasdan va infratuzilmani rivojlantirmasdan turib elektromobillarga o'tishning o'zi energiya tarmog'iga tushadigan yuklamaning faqat oshishiga olib келади. Йиғилиш ishtirokchilari birin-ketin ta'kidlaganidek, qaysidir mutasaddi idoralar mamlakatimizga olib kirilayotgan elektrromobillarga qancha quyosh panellari yoki boshqa muqobil energiya manbalari o'rnatilishi, ishga tushirilishi va to'g'ri ishlashini hisoblab chiqishi va butun jarayonni nazorat qilishi kerak. Albatta, buning uchun muqobil energiyadan foydalanishni kafolatlaydigan elektr transport vositalari uchun zaryadlash jadvali ham talab qilinadi. Aks holda, yangi elektr transport vositalarining importi qazib olinadigan yoqilg'ining qo'shimcha yonishiga olib келади. Учрашув ishtirokchilarining hafsalasini pir qilgan yana bir jihat shu bo'ldiki, banklar odatda konsalting xarajatlarini to'laydi, ammo qimmat uskunalar haqida gap ketganda (bu yashil loyihalarda tez-tez uchraydigan holat) buning uchun kredit olish juda қийин. Иштирокчилар, shuningdek, yashil moliya bozorida "uzoq muddatli pul" hali kuzatilmayotganidan afsuslanishdi. YETTB dasturi o'rta muddatli, ya'ni to'rt yilga, lekin aslida uch yilga mo'ljallangan. Nihoyat, yig'ilganlar ayni damda o'z korxonasida ishlab chiqarilgan vodorodni yoqishga majbur bo'layotganini aytgan Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorning hikoyasini eshitdi. Axir, uning biznesining rentabelligi uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan vodorodni saqlash va ishlatish uchun o'zini yaxshi ko'rsatgan texnologiyadan

foydalanishni ta'minlaydigan kredit stavkasidan паст. Учрашувда халқаро ташкилотларга nisbatan ta'nalar ham yangradi, ular, yig'ilgan tadbirkorlarning fikricha, banklarga yordam beradi, ammo "yashil" biznesga yordam бермайди. Молия сектори vakillari tanqidlariga qo'llaridan kelganicha javob беришди. ЕТТБ vakili hozirda banklar ishiga hech qanday tarzda ta'sir o'tkaza olmasligini ta'kidladi, chunki YETTB o'zi hamkorlik qilayotgan mamlakatlarning moliya sektoridagi o'yin qoidalarini o'zgartirishga vakolatli emas. Bunga faqat davlatning vakolati bo'lishi mumkin, u bilan eng yaxshi holatda muzokaralar olib borish mumkin. Xurshida Uzoqovanning so'zlariga ko'ra, ayni damda, o'zi bilishicha, O'zbekistonda barcha kreditlar, jumladan, "yashil" kreditlar uchun garov ta'minoti talabi Markaziy bankdan келади. GEFF eksperti Stanislav Dubko, o'z navbatida, yig'ilganlarni jamg'arma portfelidagi elektr transport vositalari, shuningdek energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan bog'liq loyihalarga investitsiyalar teng ekanligiga ishontirdi: mablag'larning katta qismi elektromobillar sotib olish uchun emas, balki energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalariga йўналтирилади. Hamkor, bank vakili, o'z navbatida, ularning banki "yashil" mezonlarga javob beradigan loyihalarga yillik 10-14 foiz stavka bilan kreditlar berilayotganini, ammo bu faqat xorijiy valyutada ekanligini aytdi.

Bu holat O'zbekistonda energiya samaradorligiga erishish eng yirik va moliyaviy jihatdan barqaror tashkilotlardan boshlanadi, deb taxmin qilish imkonini beradi. Hozirgi sharoitda ular YETTB tomonidan "yashil" loyihalar uchun ajratiladigan mablag'larning eng ko'p oluvchilari ҳисобланади. Улар respublikadagi "yashil" o'tishning lokomotiviga aylanadimi? Unga kichik va o'rta biznes vakillari jalb qilinadimi? Ularni isloh qilish SO2 tashlanishlarini kamaytirishga maksimal darajada ta'sir qiladimi? Bu borada to'liq ishonch yo'q. Kichik va o'rta biznes hamda yakka tartibdagi uy xo'jaliklari uchun qulayroq bo'lgan turli xil kredit shartlari bilan dekarbonizatsiya jarayoni ancha tez davom etishi mumkin edi. Hozircha esa shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirish faqat "yashil loyihalar" uchun kreditlarga maqsadli mablag'lar ko'rinishida mavjud, xolos. Biroq hukumat tomonidan qabul qilingan muayyan chora-tadbirlarga qaramasdan, imtiyozli foizlar haqida hozircha gap yo'q. Vaziyatni yumshatishga qaratilgan sa'y-harakatlar, masalan, yashil startaplar uchun bir yil oldin amalga оширилган. Учрашув moderatori Ivan Butuk yig'ilganlarni ishontirganidek, bir vaqtlar "yashil" o'tish yo'lini tanlagan ko'plab davlatlar shunga o'xshash muammolarga duch kelgan. Uning so'zlariga ko'ra, yetib oluvchi rivojlanishning o'z afzalliklari bor va O'zbekiston hali ham ulardan foydalanishi mumkin.[6]

**Xulosa:** Tijorat banklari tomonidan o'simlik loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish yo'llari ko'proq moliyaviy xizmatlarni taqdim etish, investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'simliklar uchun maqbul kredit shartlari

tuzish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va hisobotlar tuzish, hisobotlash tizimlarini modernizatsiya qilish va o'quv kurslari tashkil etish ham rivojlantirish yo'llari bo'lishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. “ЯШИЛ” ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ЙИЛЛИК ҲИСОБОТ (2022 йил якуни бўйича)
2. <https://lex.uz> > docs ПФ-5583-сон 24.11.2018. Тадбиркорлик ва инновациялар ...
3. [https://tfi.uz/uz/news/yashil\\_moliya\\_061223](https://tfi.uz/uz/news/yashil_moliya_061223)
4. [Regulation.gov.uz](http://strategy.regulation.gov.uz) <http://strategy.regulation.gov.uz> > ...Система оценки воздействия актов законодательства
5. [Iqtisodiy taraqqiyot va tahlilhttps://e-itt.uz](https://e-itt.uz) > article > view ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ БАНКЛАР ...
6. [Anhor.uz](https://anhor.uz) <https://anhor.uz> > [vzglyad-iznutri](https://anhor.uz) Ўзбекистонда самарали “яшил” молиялаштириш....
7. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)
8. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank’s General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)
9. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)
10. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)
11. Sharipova N. D., Asadova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – Т. 6. – С. 55-62.
12. Шарипова Н.Д., Чориев Я.А. СТРАХОВАНИЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management. -2023- Т.2. - С. 92-99.
13. Sharipova N. D., Jurayev I. S. THEORETICAL FOUNDATIONS OF MONETARY POLICY// INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY. – 2023. -Т. 10. -С. 171-173.



14 Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. THE IMPORTANCE OF ANTI-INFLATIONARY POLICY AND INFLATION TRADING IN UZBEKISTAN// INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT. -2023. -Т. 10. -С. 92-94.

15.Tursunov, F. M. (2023). TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 75–81.

16.Tursunov Faridun Mustafoevich. (2023). OPPORTUNITIES FOR REMOTE BANKING SERVICES TO GROW IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN’S COMMERCIAL BANKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.

17.Каримова А.М., Махсудов О.Ш. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Яшил иктисодиёт ва тараққиёт журнали,2023-йил, октябрь,10-сон, 79-83.

18.Ниязов З. Д., Махсудов О.Ш. Investment attractiveness of the enterprise, as well as factors influencing its development in the economy of Uzbekistan./ Иктисодиёт,молия ва инновациялар халқаро илмий журнали,декабрь 29, 2023 1(4) сон, 47-55.

19.Каримова А.М., Ниязов З. Д. Махсудов О.Ш. Кредитная поддержка инновационного развития / SCHOLAR 1(32) сон, ноябрь 2023, 171-179.

## MODERN METHODS OF IDENTIFYING THE CAUSATIVE AGENTS OF RESPIRATORY DISEASES IN CHILDREN

*Bakhodirov Behruz Shavkat o'g'li*

*Bukhara State Medical Institute named after Ali Abu ibn Sino*

<https://orcid.org/0009-0001-4718-7138>

**Annotation:** The article provides a general understanding of the shortcomings, inconveniences and modern methods of using classic old methods to identify the causative agents of respiratory diseases in children, as well as the advantages of modern diagnostic criteria and methods for identifying the causative agents of diseases.

**Keywords:** Pneumonia, atypical pneumonia, respiratory diseases, mycoplasma, chlamydia, IFA, IXLA, Immunoglobulin M, Immunoglobulin G.

Difficulties in diagnosing respiratory diseases in children sometimes lead to irrational empiric prescription of antibacterial drugs, formation of resistant flora, prolongation of treatment and development of complications [3].

Diseases of respiratory organs in children occupy a leading place in the nosological forms of all diseases [1]. One of the important tasks of children's pulmonology is to determine the etiological factors of respiratory pathology. It is important to determine the etiology of the pathogen for the correct etiological diagnosis of serious diseases such as pneumonia outside the hospital and for the correct selection of antibacterial therapy. In recent years, it has been noted that the exacerbation of the inflammatory process of the lung parenchyma with the mild manifestation of intoxication in respiratory diseases, the lack of physical data and the absence of inflammatory changes in the peripheral blood possible [1,2]. These cases require a modern approach to the diagnosis of the etiology of respiratory diseases in children.

As a minimally invasive diagnostic method, a number of authors suggest studying the quantitative composition of neutrophils that have migrated from the general blood stream to the oral cavity. The essence of the method is that the absolute number of neutrophils in the oral cavity was calculated using a fluorescent microscope. The method shows the increased emigration of neutrophil granulocytes to the oral cavity and allows to identify different clinical forms of acute pneumonia. The disadvantage of this method is the lack of possibility to check and identify the causative agent, which means that it cannot provide information for prescribing etiotropic treatment [4].

In addition to the quantitative calculation of the composition of oral neutrophils, some authors propose to determine the indicators of oral granulocyte damage when stimulated by various bacterial antigens. Determining the structural or functional activity of neutrophils during incubation with B. Gervasieva antigen. After staining,

the number of damaged elements among 100 granulocytes using a fluorescent microscope, and then the calculation of the test index of neutrophil damage was conducted. *Mycoplasma* spp., *Chlamydia* spp. data on the activity of oral neutrophils against bacteria. That is, it can be assumed that various infectious diseases cause specific changes in the migration of neutrophils and their damage [5,6].

There is no doubt that the identification of the causative agent by bacterial inoculation of sputum is a traditional effective diagnostic method for diagnosis. However, this method is hampered by the lack of opportunity and difficulty of collecting sputum from children, the difficulty of obtaining a high-quality sample, and the duration of the research, which is on average 48 hours to 7 days. For this reason, this traditional method is not one of the less invasive, fast and time-consuming methods [3,4].

In recent studies, special attention has been paid to the study of oxidation status among the pathogenetic mechanisms of the initiation and kinetics of the inflammatory process in the lungs. This is due to an imbalance in the adaptive mechanism of homeostasis in response to inflammation: lipid peroxidation - antioxidant protection [5,6]. Excessive production of reactive oxygen species by neutrophil granulocytes, which damage phospholipids of cell structures and vascular endothelium, causes a cascade of inflammatory reactions. In this case, an oxidant-antioxidant imbalance occurs, which contributes to the development of oxidative stress [7]. Different pathogens may be able to change the parameters of the oxidation state to different degrees, which allows to use it to determine the etiology of pneumonia outside the hospital.

The ratio of pro- and anti-inflammatory cytokines in the blood plasma can be an indicator of the etiology of the pathogen. A balanced increase in pro-inflammatory interleukin-1 and anti-inflammatory interleukin-4 has been reported in community-acquired pneumonia caused by "typical" pathogens. In mycoplasma and chlamydia infections, there is a slight increase in the level of interleukin-1 and a high increase in the level of anti-inflammatory interleukin-4. These conditions should be taken into account not only when investigating the etiology of the pathogen, but also when explaining the fact that there is no clear inflammation of the lung parenchyma in atypical pneumonia and the disappearance of clinical symptoms [10].

There are also methods that allow you to predict the etiology of pneumonia outside the hospital with high probability. A number of works describe the relationship between the etiological factor and the characteristics of the morphological form of pneumonia outside the hospital. The work of some authors presented the results of a prospective study of more than six hundred children of preschool age who were treated in the hospital with a diagnosis of pneumonia outside the hospital. Accordingly, in children infected with mycoplasma or chlamydia, focal forms of damage to the lung

parenchyma are recorded in most cases. At the same time, not a single case of the development of massive inflammation, such as segmental and lobar forms, was recorded. In pneumonias caused by staphylococci, pneumococci, and Haemophilus influenzae, focal and focal mixed forms, as well as segmental and lobar forms are often detected. Thus, the characteristics of the morphological form of pneumonia outside the hospital allow us to indirectly estimate the nature of the pathogen based on the results of X-ray imaging [8,9].

In the etiology of diseases, it is important to use the method of determining blood saturation in the differential diagnosis of triggers. A number of researchers have provided convincing evidence that a saturation average of 92% or less is typical for pneumonia caused by pneumococci and Haemophilus influenzae. Respiratory diseases caused by atypical pathogens are characterized by normal saturation or their slight decrease [4,5].

Clinical appearance is very important in the differential diagnostic criteria of the etiology of pneumonia outside the hospital. In pneumonia caused by atypical pathogens, broncho-obstructive syndrome, rhinitis and family transmission of the disease prevail. Pneumonia caused by typical pathogens is characterized by signs of respiratory failure and auscultation of soft breathing over the inflammation [6].

One of the modern methods for determining the etiological agents of respiratory tract diseases is the examination of specific immunoglobulins in relation to the agent from the blood of a sick child. Determination of specific immunoglobulins by IFA and IXLA methods allows for high accuracy and specific response. The essence of this method is determined by the antibody immune reaction produced in the body against the provoking antigen. Immunoglobulin M is produced early in relation to the pathogen. Immunoglobulin G, which is produced relatively late, means that the disease has been transmitted, and immunity to this disease has been formed in the body [5].

In conclusion, it can be said that the use of modern methods of diagnosing the etiology of respiratory diseases in children allows to get more comprehensive information about the causative agent and the course of the disease. In addition, the use of modern methods makes it possible to diagnose the disease early, choose the right treatment tactics in time, and prevent the general condition of the child from getting worse.

#### Literature:

1. Tatochenko V.K. Diseases of the respiratory system in children: a practical guide. Moscow: «Pediatr'»; 2012. 480 p.
2. Baranov A.A. The state of health in children in the Russian Federation. *Pediatrics*. 2012;(3):4–9.

3. Lyutina E.I., Manerov F.K. Morbidity and mortality from community-acquired pneumonia in children and adolescents residing in Kuzbass. *Pediatrics*. 2015;(2):203–206.
4. Bahodirov Behruz Shavkatovich. (2023). Peculiarities of the clinic of pneumonia caused by atypical pathogens in children. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 2(12), 552–554. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/8958>
5. Shavkat o'g'li, B. B. . (2023). SPECIFICITY OF THE CLINIC OF ATYPICAL PNEUMONIA IN CHILDREN. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 2(5), 167–170. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/7147>
6. o'g'li, B. B. S. . (2022). Atypical Pneumonia in Children in Modern Conditions. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 1(6), 211–218. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/4494>
7. Nabieva Zumrat Tukhtaevna. (2023). ETIOLOGICAL FACTORS OF PNEUMONIA IN CHILDREN. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 671–675. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1168>
8. Tukhtaevna, N. Z. (2024). Diagnosis and Modern Methods of Treatment of Mycoplasma and Candida Pneumonia. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 289–293. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/2407>
9. Characteristics of Mycoplasma and Candida Pneumonia in Children. (2024). *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 331-338. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/148>
10. Temirovich, T. T., & Shakhlo, K. (2024). Technology of Monitoring of Premature Children with Atopylic Pneumonia with Anemia. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(2), 18–23. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/2027>

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
1	CHIZIQLI DASTURLARNI BAJARISH ALGARITIMLARI	3
2	RAQAMLI TEXNOLOGIYA	7
3	RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI RAG'BATLANTIRISH VA HIMOYA QILISH AGENTLIKLARINING (IPPA) O'RNI	11
4	KUTUBXONA SOHASIGA SUN'IY INTELLEKTNI KIRIB KELISHI QANDAY IMKONIYATLARNI OCHIB BERADI	16
5	TURIZM EKOLOGIYASI	25
6	КОРЕЙС ТИЛИДА САЛОМЛАШИШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	30
7	THE SIGNIFICANCE OF PREVENTIVE MEASURES IN PREVENTING THE SPREAD OF TUBERCULOSIS AMONG THE POPULATION RESIDING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	35
8	ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕР В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ТУБЕРКУЛЕЗА СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ, ПРОЖИВАЮЩЕГО В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	39
9	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTIQOMAT QILUVCHI AHOLI O'RTASIDA SIL KASALLIGINING TARQALISHINI OLDINI OLISHDA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARNING AHAMIYATI	44
10	MOYLI KUNGABOQARDA MINERAL O'G'ITLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN SUSPENZIYA QO'LLASHNING O'SIMLIKNING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI	49
11	ЭФФЕКТИВНАЯ ШКОЛА И ЕЁ ОЦЕНКА	57
12	ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА КУРСАНТЛАРГА ЛЕКСИК МАТЕРИАЛНИ ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ	65
13	ҲАЙВОНОТ ОЛАМИНИНГ ИНСОН ҲАЁТИДАГИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА	69
14	SUDLANGAN SHAHSLARNING TA'LIMNI TASHKIL QILISH USTUVORLIGI	77
15	QAMOQXONADA TA'LIM: ASOSIY HUQUQ VA MUHIM VOSITA	83
16	KURSANTLARGA HARBIY TERMINLARNI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	89
17	THE ROLE AND IMAGE OF A TEACHER IN SOCIETY	97
18	TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO YOUNG LEARNERS	101
19	ADABIYOT HAYOT VA HAQIQATNING BADIY TALQINIDA	105
20	АТОМ И ЕГО СТРОЕНИЕ	108
21	O'ZBEKISTONDA NIZOLARNING ARBITRAJDA KO'RISH EHTIMOLLARI	112
22	MARKAZIY OSIYO INVESTITSIYA SHARTNOMALARIDA NIZOLARNI HAL QILISH MEKANIZMLARI	117

23	MAKTABGACHA TA'LIMDA MUSIQA O'QITISHNING AYRIM XATO VA KAMCHILIKLARI	122
24	IMPROVING COMMUNICATION SKILLS THROUGH GAMES FOR B2 LEARNERS	126
25	“HISOR” DAVLAT QO‘RIQXONASIDA ANIQLANGAN YANGI FAUNA VAKILI	130
26	WHAT CAN HUMANITY DO TO HELP THE ANIMAL AND PLANT WORLD AND TO REDUCE THE DISAPPEARANCE OF RARE GIFTS OF NATURE?	133
27	WHAT CAN HUMANITY DO TO HELP THE ANIMAL AND PLANT WORLD AND TO REDUCE THE DISAPPEARANCE OF RARE GIFTS OF NATURE?	136
28	POYABZAL SANOATIDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA SANOAT EKOLOGIYASI	140
29	POYABZAL KORXONALARIDAGI TRANSPORT VOSITALARI TAVSIFI	145
30	YERDA TEMIR BO‘LMAGANIDA HAYOT BO‘LARMIDI	148
31	READING STRATEGIES WITH BLOOM’S TAXONOMY	152
32	VIKTORIA NAVLI QULUPNAY HOSILIGA TA’SIR ETUVCHI AGROTEXNOLOGIK EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR	155
33	JADIDCHILIK HARAKATINING IJTIMOYIY-SIYOSIY MOHIYATI VA JADIDLAR TAFAKKURI	161
34	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMIZLARINI QABUL QILISHINI VA ULARNING AHAMIYATI	166
35	MUSTAQIL SUD TIZIMI O‘ZBEKISTONDA QURILAYOTGAN DEMOKRATIK JAMIYATNING ASOSI	170
36	MUSTAQIL SUD TIZIMI O‘ZBEKISTONDA QURILAYOTGAN DEMOKRATIK JAMIYATNING ASOSI	173
37	O‘ZBEKISTONNING LOGISTIK IMKONIYATLARI	176
38	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	179
39	MODERN METHODS OF IDENTIFYING THE CAUSATIVE AGENTS OF RESPIRATORY DISEASES IN CHILDREN	186

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*

**Главный редактор:  
Семёнов Владимир Львович**


**Помощник редактора:  
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:  
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.







OPEN  ACCESS

